

## Toponimlar lingvistik tadqiqotlar manbai

**Majidova Shahnoza o'qituvchi,**

**Termiz davlat pedagogika instituti**

**Tel. +99 897 691 14 08**

### Annotatsiya

Maqolada gidronimlarni olimlarning qay darajada o'rganganlik darajasi yoritib beriladi. Hudud gidronimlarining barchasi to'planmagan, ayrimlarining bunyod etilish tarixi, geografik jihatlari o'rganilgan, biroq sof gidronimik lug'at yaratilmagan. Mazkur lug'atlarda toponimlar sirasida ayrim gidronimlarning, ko'proq yirik suv ob'ektlarining tarixiy shakllari, variantlari, onomastik ma'no qirralari, qisman etimologiyasi izohlangan.

**Kalit so'zlar:** gidronim, toponim, tarixiy, kelib chiqish, nomlanish, etimologiya, onomastik, Chog'onrud, Amul, Yaksart.

### Аннотация

В статье освещается степень изученности учеными гидронимов. Собраны не все гидронимы региона, изучена история некоторых из них, их географические аспекты, но не создан чистый словарь гидронимов. Среди топонимов в этих словарях разъясняются исторические формы, варианты, аспекты ономастического значения и частичная этимология некоторых гидронимов, в основном крупных водоемов.

**Ключевые слова:** гидроним, топоним, исторический, происхождение, номинация, этимология, ономастика, Чогонруд, Амуль, Яксарт.

### Annotation

The article highlights the extent to which scientists have studied hydronyms. All hydronyms of the region have not been collected, the history of some of them, their geographical aspects have been studied, but a pure hydronym dictionary has not been created. Among the toponyms, historical forms, variants, onomastic meaning aspects, and partial etymology of some hydronyms, mostly large water bodies, are explained in these dictionaries.

**Key words:** hydronym, toponym, historical, origin, naming, etymology, onomastic, Chogonrud, Amul, Yaksart.

Joy nomlari qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma'lumot beruvchi lisoniy manbadir. Shu bois toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya kabi o'nlab fanlar o'z nuqtayi nazaridan o'rganadi. Toponimlar joy nomlari bo'lib, nom sifatida ularning lug'aviy-semantik xususiyatlari, vujudga kelish omillari, tuzilishi va yasallish xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

Joy nomlarining yaratilishining muhim omillaridan biri ularni farqlash hisoblanadi. Bir shaharni ikkinchi shahardan, bir qishloqni ikkinchi qishloqdan ajratish uchun, shahar va qishloqlar manzillarini topish va bir-biridan farqlash uchun turlicha nomlar qo'yilgan. Bunday nomlar *geografik nomlar* yoki *toponimlar* deb ataladi, ularni o'rganadigan soha esa *toponimika* deyiladi.

Toponimika yunoncha *topos* – joy va *onoma* (yoki *onima*) – nom so'zlaridan olingan.

Toponimiya onomastikaning o'ziga xos sohasi bo'lib, uning ham bir qator turlari mavjud. Bular: gidronimiya (yunoncha gidro – suv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros – tog'), ya'ni yer yuzasidagi relyef shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos – uy), polinimiya (yunoncha polis – shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha mikros – kichik), ya'ni kichik obyektlar: dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxt nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos – xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antrotoponimlar (yunoncha antros – odam) deb yuritiladi<sup>35</sup>.

Toponimika shaharlar, qishloqlar, ovullar, daryolar, soylar, tog'lar kabi geografik nomlarni, tarixini, ularning kelib chiqishini, o'rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Demak, toponimika atoqli

<sup>35</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 5.



otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoridan o'rin oladi.

Toponimik nomlar inson turmush tarzi bilan bog'liqligi, inson hayotining bir qismi bo'lganligi uchun ham ularni o'rganish, joy va suv obyektlarining geografik o'rnini belgilashga doir masalalar bilan qadimdan shug'ullanib kelingan. Tarixchi va geograf Hofizi Abru Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiyning "Tarixi Hofizi Abru" nomli mashhur tarixiy-geografik asarida yer yuzidagi suvlar, tog'-toshlar, mamlakatlar va ulardagi aholi manzillari, shuningdek, Fors, Kermon, Xurosonning batafsil geografiyasi va tarixi, Movarounnahr geografiyasi bayon etilgan. Xususan, *Samarqand*, *Buxoro*, *Kesh*, *Naxshab*, *Termiz* kabi shaharlar hamda *Jayxun*, *Sayhun*, *Murg'ob* va boshqa daryolar, mamlakatlar, viloyatlarning kenglik va uzunliklari haqida ma'lumot berilgan<sup>36</sup>.

Muallifi noma'lum "Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib" ("Olam (Yer)ning mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan chegaralari haqida kitob") nomli fanda qisqacha "Hudud ul-olam" shaklida tanilgan tarixiy-geografik asarda ham Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonga doir geografik, etnografik ma'lumotlar berilgan. Xususan, Buxoro, Baykand (Poykend), Sug'd, Tavovis, Karmina (hozirgi Karmana), Kushoniy (Kushaniya), Samarqand, Kesh, Tirmiz (Termiz), Farg'ona, Shom va boshqa shahar hamda viloyatlar ta'rifi keltirilgan. Asarda hozirgi Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston va G'arbiy Xitoy hududi tasvirlangan va dengiz, daryo va boshqa joy nomlari keltirilgan<sup>37</sup>. Asarning "Dengizlar va qo'ltiqlar haqida so'z" nomli bobida *Xazar dengizi* (hozirgi Kaspiy dengizi), *Xorazm dengizi* (Orol dengizi), "Daryolar haqida so'z" bobida *Jayxun* (Amudaryo), *Xarnob* (Panj daryosi irmog'i bo'lishi mumkin), *Chag'onrud* (Surxondaryo), *O'zgand* (Qoradaryo), *Xirsob* (Kurshob), *O'sh daryosi* (Oq'bura), *Qubo daryosi* (Quvasoy), *Xatlom* (Norin), *Parak* (Chirchiq), *Buxoro daryosi* (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning hududlari, quyilish manbai, irmoqlari, oqim yo'nalishi, ayrim gidronimlarning nomlanishi haqida to'liq ma'lumot keltirib o'tilgan<sup>38</sup>.

<sup>36</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. II ж. – Б. 381.

<sup>37</sup> Хасанов Х. Сайёҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 266.

<sup>38</sup> Худуд ул-олам // Масъул мухаррир Мирсодиқ Исмоков. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 6-10.

“Hudud ul-olam” (“Dunyoning hadlari”) tarixiy-geografik asar. Ushbu asar 982-983-yillarda fors-tojik tilida yozilgan boʻlib, muallifi nomaʼlum. Bu asarda Movarounnahr daryolari: “Jayxun (Amu) daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shigʻnoni Vahon hududidan oʻtib, Xorazm dengiziga quyiladi”. “...Xarnob (Panj) Qasark togʻining gʻarbidan oqib chiqadi va Badaxshon va Polgʻar (Parxor) orasidan oʻtib Jayxunga qoʻshiladi”. “Yana bir daryoki, uni Vaxshob deydilar, Vaxsh togʻlaridan chiqadi, Vaxsh (shahri) yaqinida Jayxunga quyiladi”. “Chagʻonrud (Surxondaryo)ki, Chagʻoniyondan oqadi va Termiz yonida Jayxunga quyiladi”. “...Yana biri Oʻzgand suvidirki, Xallux togʻi (orqasi)dan boshlanib, Oʻzgand, Bob (Pop), Axsikat, Xoʻjand, Banokat shaharlari yonidan oʻtadi va to Choch yerlarigacha yetadi, soʻngra Xorazm dengiziga quyiladi”. “Yana bir daryo (hozirgi Qurshob daryosi) Xurshobdirki, Buttamon chekkasidan, shimoliy togʻlaridan boshlanib, Xurshob shahri yaqinida Oʻzgandga (Sirdaryoga) quyiladi”. “Yana boshqasi Oʻsh suvidirki, Oʻzgandga quyiladi”. “Yana bir daryo Qubo (suvi)dirki, Qubo shahri yaqinida Oʻzgand (suvi)ga quyiladi”. “Yana boshqasi Parak daryosidirki, Choch yerlaridan oʻtadi, Oʻzgandga quyiladi. Bu daryolar hammasi qoʻshilgandan keyin yaxlit suv Choch daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni Sayhun deb ataydilar” kabi maʼlumotlar keltirilgan<sup>39</sup>.

“Hudud” asarida Zarafshon Buxoro daryosi deyilgan. Koʻrinadiki, daryolar koʻp holatlarda shaharlar, viloyatlar va qishloq nomlari bilan atalgan.

“Hudud ul-olam” muallifi Sirdaryoni bir oʻrinda Hasart deb atagan. Shunga koʻra Sirdaryo X asrda Oʻzbekiston tuprogʻida Oʻzgand va Hasart nomlari bilan atalgani maʼlum boʻladi. Shunday qilib, Hasart mahalliy nom hisoblanib, qadimgi yunonlarning kitoblarida yozilgan Yaksart shakli Hasartdan oʻzgartiribroq olingan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi Oʻrta Osiyo, Hindiston va Afgʻonistonning tarixi, xalqi, tili, etnografiyasi, geografiyasi, oʻsimliklar dunyosi va hayvonot olami, kishilarining kasb-kori, turmush tarzi va boshqa xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan bebaho xazinadir. Shuningdek,

<sup>39</sup> Худуд ул-олам // Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 6-10.



“Boburnoma” gidronimlarni o‘rganishda muhim tarixiy manbadir. Asarda *Andijon suvi*, *Aylamish daryosi*, *Jayxun // Amudaryo*, *Koson suyi*, *Sayhun // Sirdaryo // Ars suyi*, *Sang suyi*, *Xoqon arig‘i*, *Xo‘jan suyi* singari gidronimlar haqida ham ma‘lumotlar kuzatiladi<sup>40</sup>.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Yunon olimlari asarlarida O‘rta Osiyoning geografik nomlari to‘g‘risida ma‘lumotlar uchraydi. “Tarix fani otasi” Gerodot Gerkand (*Kasbiy*) dengizi va *Araks* daryosini (*Amudaryoni*) tilga olgan. Miloddan avvalgi I asr – milodning I asrida yunon tarixchilari asarlarida hozirgi *Amudaryo Oks* (yoki *Oksos*) deb atalgan. Olimlar *Oks* (ba‘zan *Akes*) *Amudaryoning* qadimiy nomi – *O‘kuz* “daryo” so‘zi deb hisoblaydi. “Avesto” va boshqa tarixiy manbalarda *Amudaryoning Arang*, *Raxa*, *Ranxa*, *Aranxa* kabi nomlarini ham uchratish mumkin. Arablarda *Jayxun* “jo‘shqin (daryo)” deb atashgan.

O‘rta Osiyoning, jumladan, O‘zbekistonning daryolari, tabiiy geografiyasi, shaharlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar miloddan avvalgi I asrga kelganda aniq bir tus oladi.

Toponimshunos olim Suyun Qorayev ta‘kidlashicha, qadimgi yunon geografi va tarixchisi, 17 jildlik “Geografiya” asarining muallifi Strabon, tarixchi va yozuvchi, 7 jildlik Aleksandr Makedonskiy yurishlari tarixi muallifi Flaviy Arriyan, 10 jildlik “Aleksandr Makedonskiy tarixi”ni yozgan Ruf Kursiy, *Yaksart (Sirdaryo)*, *Politimet (Zarafshon)* haqida ma‘lumotlar berganlar. Arrian *Sirdaryo* bo‘yida sug‘diylarning Vasileyga shahrini tilga olgan. Astronom Klavdiy Ptolemey (taxminan 90-160 yillar) O‘rta Osiyo geografiyasi haqida keng ma‘lumotlar berib o‘lka hududlarini, daryolari, shaharlarini tasvirlab yozgan<sup>41</sup>.

Shunday qilib, yunon va o‘rta asr mashhur olimlari asarlarida O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududidagi bir qancha daryo nomlari, masalan, *Girkand dengizi*, *Oks (Oksos – Amudaryo)*, *Araks (Amudaryo)*, *Yaksart (Sirdaryoning qadimiy nomi)*, *Politimet (Zarafshon)* va boshqa gidronimlar tilga olingan.

S.Qorayevning “Toponimika” kitobida Beruniyning “At-tavxim”, “Hindiston tarixi”, “Al-osorul boqiya”, “Qununi Ma’sudi” asarlarida ham ko‘plab suv obyekti nomlari keltirilgan. Olim xorazmliklarda *Vaxsh* suvlarni jumladan, *Jayxun* daryosini nazorat qilib turgan malak nomi ekanligini aytgan. *Amudaryoning* o‘ng irmog‘i bo‘lgan *Vaxsh*,

<sup>40</sup> Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 336.

<sup>41</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 43.

Surxondaryo viloyatidagi *Vaxshivor*, *Vaxshivordara* kabi toponimlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. "Geodeziya" asarida Beruniy o'sha vaqtdagi *Sariqamish* ko'lini *Xiz tengizi*, ya'ni "*Qiz dengizi*" deb atagan, – degan ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>42</sup>.

Arab geografi Ibn Rusta (Abu Ali Ahmad ibn Umar)ning (X asrda yashagan) "Kitob al-alak an-nafisa" ("Durdonalar kitobi") asari O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimikasi uchun muhim manba hisoblanadi. Ibn Rusta Buttam tog'laridan oqib keladigan *Qumrud* va *Xovarrud* daryolarini *Romid* (hozirgi *Kofirnihon*) daryosining irmoqlari deb ataydi. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, bu daryolar hozirgi Surxondaryoning *Qoradaryo*, *To'palangdaryo*, *Sangardakdaryo* nomli irmoqlari bo'lishi kerak<sup>43</sup>.

X asrda Istarxiy (Abu Isxoq Ibrohim ibn Muhammad al-Farisiy)ning "Kitob al-masolik va al-mamolik" asari arab geografiyasining katta yutug'i bo'lgan. S.Qorayevning ta'kidlashicha, keyinchalik Movarounnahrda sayohat qilib, uni tasvirlab yozgan ibn Havqal Istarxiy asarini yanada to'ldirdi. Masalan, ibn Havqalning guvohlik berishicha, *Cag'onrud* (*Chag'onrud*), ya'ni Surxondaryo Termiz shahridan pastroqda *Amudaryoga* quyilgan<sup>44</sup>.

Demak, Surxondaryoning qadimgi nomi arablar tilida *Chag'onrud*, *Sag'onrud* shaklida uchrashini ko'rishimiz mumkin.

*Chag'onrud* "Hudud al-olam" ("Olam chegaralari")da *Chag'onrud* – *Chag'anrud* bitilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ham *Chag'onrut*. *Chag'on* – daryoning bosh qismidagi shahar. *Chag'on* – qizg'ish daryo bo'yidagi, yonidagi shahar. *Chag'oniyon* shahar nomi – uning yonidan oquvchi daryo nomidan olingan<sup>45</sup>.

A.X.Vostokov nomlarning qadimiyligi haqida quyidagi fikrni bildirgan. Har qanday mamlakatda daryolar, ko'llar va tabiiy geografik obyektlarning nomlari shaharlar, o'lkalarning nomlariga ko'ra qadimiyroqdir, chunki shaharlar qurilmasdan ko'p zamonlar oldin ibtidoiy kishilar suv bo'ylarida kichik-kichik guruh bo'lib yashay boshlaganlar va bu

<sup>42</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 44.

<sup>43</sup> Бартолд В.В. Сочинения. Т. II. – Москва, 1963. – Б. 45.

<sup>44</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 46.

<sup>45</sup> Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2008. – Б. 88.



suvlarga o'z tillarida nom berganlar Rossiyada ham xuddi shunday bo'lgan<sup>46</sup>. Demak, tabiiy geografik obyektlarning nomlariga qarab Rossiyada dastlab qanday qabilalar yashagani to'g'risida haqiqatga yaqin xulosalar chiqarib bo'lmaydi.

U geografik nomlarni old yoki oxirgi qo'shimchalarining o'xshashligiga qarab, bir necha guruhga bo'ladi. Chunonchi, olim d-n guruhiga Don, Dvina, Dunat, Dnepr, Dnestr daryolarini kiritadi. Keyinchalik olim don so'zi eron tillari guruhida gaplashadigan xalqlarning tillarida "daryo" (suv) degan ma'noni anglatishini aniqladi.

Rus olimi A. Orlov ham 1907-yilda yozilgan "Rossiyadagi va G'arbiy Yevropadagi ba'zi bir daryolar, shaharlar, qabilalar va joy nomlarining kelib chiqishi" nomli monografiyasida Rossiyaning Yevropa qismidagi daryolarning nomlaridagi oxirgi qo'shimchalariga qarab bir necha guruhga bo'lgan<sup>47</sup>. Keyinchalik olimlar ana shunday bir xil qo'shimchalar bilan tugaydigan qatorlarni aniqlash uchun ularning oxirgi qo'shimchalariga ko'ra teskari lug'atlarni tuzishgan. Ana shunday qo'shimchalar qandaydir ma'noga ega bo'lsa kerak deb o'ylab, ularni formant yoki topoformant deb atay boshladi<sup>48</sup>.

Qozon shahri to'g'risidagi rivoyatlarga ko'ra Botiyxonning xizmatchilari ovqat tayyorlayotgan vaqtda to'satdan suvga qozon tushib ketgan va shundan beri bu joy, ya'ni soy Qozon deb atalar ekan<sup>49</sup>. A.F.Orlov *Qozon (Kazanka)* degan to'rtta soyni sanab o'tadi va shahar o'sha soy nomidan kelib chiqqan, *Qozon* daryosi nomi bilan atalgan, deya ta'kidlab o'tadi.

A.F.Orlov daryolarning nomlariga haddan tashqari ortiqcha baho beradi va ingliz, bulg'or, bur, german, nemis, polyak, pruss xalqlari *Angel, Bur, Volga, Gera, Nemts, Poltsa, Rus* daryolari nomlari bilan atalgan deydi<sup>50</sup>. Olim shu davrga mansub gidronimlarni nomlashda zamonaviy nomlanishiga e'tiborini qaratgan. Bu fikrga ham hamma qo'shilib bo'lmaydi.

<sup>46</sup> Востоков А.Х. Русский Грамматика. – Санкт-Петербург: И.Глазунова, 1831. – С. 239.

<sup>47</sup> Орлов А.С. Происхождение названий русских и некоторых западно-европейских. – Вельсь: М.П.Кисномского, 1907. – С. 428.

<sup>48</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 31.

<sup>49</sup> Орлов А.С. Происхождение названий русских и некоторых западно-европейских. – Вельсь: М.П.Кисномского, 1907. – С. 1-21.

<sup>50</sup> Орлов А.С. Происхождение названий русских и некоторых западно-европейских. – Вельсь: М.П.Кисномского, 1907. – С. 5-18.

Mashhur toponimikaga oid asarlar haqida gap ketganda V.N.Toporov va O.N.Trubachevning “Yuqori Dnepr bo‘yi gidronimiyasining lingvistik tahlili” monografiyasiga to‘xtalish joiz.

P.L.Mashtakov bu asar uchun asosiy manba sifatida Sankt-Peterburgda 1913-yilda bosib chiqarilgan “Dnepr havzasi daryolarining ro‘yxati”dan foydalanganlar<sup>51</sup>. Kitob uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Yuqori Dnepr slavyan gidronimiyasining so‘z yasash tiplariga bag‘ishlangan bo‘lib, Yuqori Dnepr bo‘yi gidronimiyasini suffikslariga qarab 11 ta yirik tiplarga ajratgan. Keyingi qism gidronimlar etimologiyasiga bag‘ishlangan. Uchinchi qism esa gidronimiya materiali asosida Yuqori Dnepr bo‘ylarini etnik va dialekt jihatdan regionlarga bo‘lgan. Mualliflar bu hududda, ayniqsa uning janubi-sharqida eroniy elementlar anchagina uchrashini aniqladi. Keyinchalik O.N.Trubachevning tadqiqoti O‘ng sohil Ukraina gidronimlariga bag‘ishlandi<sup>52</sup>. Bu asarda toponimlarning yasash shakllariga va daryo nomlarini etimologik jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududi daryolari haqida ham ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, “Buxoro tarixi”ni 943-944-yillarda arab tilida yozgan, Buxoroning Narshax qishlog‘idan bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far-an-Narshaxiy ham hududdagi daryolar haqida ma‘lumot bergan. Asarda hozirgi Zarafshon daryosi haqida: “Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni Rudi Mosaf – Mosaf daryosi deb ataydilar”, – deb yozadi<sup>53</sup>.

Keyingi o‘rinlarda ham “rud” so‘zining daryo ma‘nosini izohlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Rus olimi V.V.Bartold arablar *Jayxun* va *Sayhun* (*Sirdaryo*) nomlarini Shimoliy Suriyadagi *Jayxon* va *Sayxon* daryolari nomlari bilan atashgan bo‘lsa kerak deydi maqolasida<sup>54</sup>. O‘rta asr tarixchisi Gardiziy: “Jayxun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot”, – degan edi. Bizningcha, bu fikr to‘g‘ri. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta‘minlab turgan *Shahrud* (Shohrud emas) – “rudi shahri Buxoro”

<sup>51</sup> Маштаков П.Л. Список рекъ Днепровского бассейна. – Санкт-Петербург: Императорской Академия, 1913. – С. 292.

<sup>52</sup> Топоров В. Н., Трубаев О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верного Поднепровья. – Москва, 1962. – С. 117.

<sup>53</sup> Наршахий. Бухоро тарихи // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 82-174.

<sup>54</sup> Бартолд В.В. Сочинения. т. II. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 110-111.



ning qisqartirilgan shakli. Aslida *Shahrud* (“shaharga suv beradigan anhor”) ning quyi qismi *Jayxun* deb atalgan, *Shahrud* kanalidagi uchta to‘g‘on boshining biri ham *Jayxun* deyiladi.

*Amudaryoni* qadimda eronliklar *Vaxsh* (*Vaxshob*) deb nomlaganlar. Daryoning irmoqlaridan biri hozir ham *Vaxsh* deb ataladi. H.Hasanovning ma’lumotlarida keltirilishicha, Abu Rayhon Beruniy *Vaxsh* xorazmliklarda suv parisi – malak nomi, – deb yozgan. Pokistonda *Amudaryoni* hozir ham *Vakshu-nada* deb atashar ekan<sup>55</sup>. O‘rta Osiyoda *Vaxsh*, *Vaxshivar*, *Vaxshivardara* degan bir nechta joylar bor. Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida Katta Vaxshivor qishlog‘i bor.

*Amudaryoning* hozirgi nomi O‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan *Omul* (*Omuy*, *Omuyya*) shahri (hozirgi Chorjo‘y) nomidan olingan deyishadi<sup>56</sup>. Shahar daryodan nom olgan bo‘lishi ham mumkin.

Mahmud Koshg‘ariyda har qanday sokin, barqaror, turg‘un narsaning *amul* deyilishi aytib o‘tilgan<sup>57</sup>.

Tarixiy yozma manbalarda *Amudaryoning* bir qancha qadimiy nomlari uchraydi: *Kalif daryosi*, *Arang*, *Raxa*, *Aranga*, *Urganch daryosi*, *Xorazm daryosi*, *Termiz daryosi* kabi.

O‘zbekiston gidronimlari geografiya fani nuqtayi nazaridan P.Baratov tomonidan tadqiq etilgan<sup>58</sup>. U yaratgan geografiyaga oid darslikning “Daryolar” nomli qismida butun O‘zbekiston gidronimiyasi uchun xarakterli bo‘lgan *Sirdaryo*, *Amudaryo*, *Zarafshon* gidronimlarining geografik xususiyatlari, nomlanish tarixi, *Sirdaryoning Yaksart*, *Sayhun*, *Silis*, *Sir* kabi qadimiy nomlari, irmoqlarining gidrologik va geografik xususiyatlari yoritib o‘tilgan.

S.Qorayev toponimlar lug‘atini tuzar ekan, lug‘atda *Chakar (Toshariq)*, *Quvurariq*, *Tuyatortar*, *Zaxariq* kabi Toshkent gidronimlari, *Shahrud*, *Gulisoy*, *Qalqonrud*,

<sup>55</sup> Xasanov X. Сайёх олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 26.

<sup>56</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 14.

<sup>57</sup> Махмуд Кошғарий. Девони луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1960. I том, – Б. 104.

<sup>58</sup> Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 209.

*Qarag'anjiyda, Ko'hak // Zarafshon, Sirdaryo* kabi gidronimlar, T.Nafasov ishlarida *Norin, Jilisuv, Jiliko'l, Qizbuloq, Qizariq* singari gidronimlar izohi berilgan<sup>59</sup>.

So'nggi yillarda O'zbekiston toponimlarining etimologik talqiniga oid etimologik lug'at xarakteridagi tadqiqotlar ham yaratildi. N.Uluqov ma'lumotlariga qaraganda, Tolib Enazarovning ana shu xarakterdagi ishida alifbo tartibida 100 ga yaqin toponimlarning etimologik tahlili berilgan<sup>60</sup>. Muallif O'zbekiston Respublikasi toponimlari sirasida *Arnasoy* (Jizzax v.), *Yettikechuv* (Surxondaryo v.), *Itbuloq* (Qashqadaryo v.), *Ko'ksuv* (Farg'ona v.), *Oltinquduq* (Buxoro v.), *Sariko'l* (Samarqand v.), *Qayirma* (Namangan v.) kabi gidronimlarni etimologik jihatdan tahlil qilgan<sup>61</sup>. Shuningdek, 12 jildli "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da ham *Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Norin, Zarafshon, Kosonsoy, Shimoliy Farg'ona kanali, Katta Farg'ona kanali, Katta Andijon kanali* kabi gidronimlar paydo bo'lishi, geografik, gidrografik va qisman lisoniy jihatdan izohlangan<sup>62</sup>.

Toponimik va ensiklopedik lug'atlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tumanlaridagi barcha gidronimlar berilmagan. Faqat katta suv havzalari ko'rsatib o'tilgan. Kichik suv havzalari esa ko'rsatilmagan. Hatto barcha viloyat toponimiyasi bo'yicha yaratilgan toponimik lug'atlarda ham gidronimlar to'la ifodalanmagan. Shu sababli siyosiy-ma'muriy xaritalarda ham gidronimlar to'la berilmagan.

Joyshunos olim S.Qorayevning ma'lumotlariga ko'ra, Tomsk davlat pedagogika institutining professori A.P.Dulzon Sibir gidronimlarini tahlil qilib qadimda ket xalqi yashagan hudud juda keng bo'lganini aniqlagan. Hozir esa Sibirda, xususan *Ob* daryosi yoqasida hammasi bo'lib 500 kishiga yaqin ket qolgan. Toponimik ma'lumotlar bir vaqtlar ketlar juda ko'p sonli xalq bo'lganini ko'rsatishini ta'kidlab o'tgan<sup>63</sup>.

<sup>59</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 240; Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 86; Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 100.

<sup>60</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000-2004. 1-8- жилдлар.

<sup>61</sup> Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик таҳлили. – Тошкент. 2004. – 120 б.

<sup>62</sup> Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 30.

<sup>63</sup> Қораев С. Топонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – Б. 14.



Yerga egalik qilish, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ham gidronimlarning nomlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

N.Begaliyevning Samarqand viloyati gidronimlari tadqiqiga oid nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek tilshunosligidagi gidronimiya sohasi bo'yicha olib borilgan muhim tadqiqotlardan biridir<sup>64</sup>. Dissertatsiyaning "Gidronimik atamalar" nomli bobida Samarqand viloyati dialekt va shevalarida uchraydigan *ariq, botqoq, bosh, buloq, og'iz, odok, (oyoh), soy, suv, quloq, quduq, ko'l, o'zan* kabi turkiy, *arna, jo'y, koriz, nova, chashma, daryo* kabi fors-tojikcha, *hovuz, nahr, sel* kabi arabcha gidronimlar hosil qiluvchi so'zlarning leksik-semantik, etimologik xususiyatlari o'rganilgan.

Gidronimik aniqlagichlar, gidronimlar tadqiqida N.Oxunovning xizmatlari katta. Uning "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" nomli risolasining bir qismi "Gidronimlar" deb atalgan. U gidronimlarni qaysi suv obyekti nomi ekanligiga ko'ra quyidagicha guruhlagan: daryo nomlari: *Amudaryo, Sirdaryo*; suv omborlari nomlari: *Chorvoq suv ombori, Karkidon suv ombori* kanal nomlari: *Katta Farg'ona kanali, Amu-Zang kanali*, soy nomlari: *Oqtepasoy, Ko'ksaroysoy, Ohaklisoy, Oqsoy*; ko'l nomlari: *To'dako'l, Chuqurko'l, Kattako'l*; buloq nomlari: *Qo'tirbuloq, Arashonbuloq, Qaynarbuloq*; ariq nomlari: *Jiydaariq, Sho'rariq, Dashtariq*, quduq nomlari: *Eshonquduq, Quduqinav, Oyoqquduq*; hovuz nomlari: *Sementli hovuz, Bo'rhovuz, Toshhovuz*; zovur nomlari *Ko'kzovur, Qorayog'zovur, Haromzovur*; to'g'on va quvur nomlari: *Qumto'g'on, Beshquvur, Toshquvur* kabi<sup>65</sup>.

Gidronimlarni tadqiq etishda N.Uluqovning "O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi" nomli tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda toponimlarning bir turi bo'lgan gidronimlar xalq tarixi bilan bog'liq bo'lgan, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam ekanligi o'rganilib, o'zbek tili gidronimlarining lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari, xronologik tasnifi, etimologik tahlili, yasalishi va tarkibiy tuzilishi batafsil yoritib berilgan<sup>66</sup>. Tadqiqotda

<sup>64</sup> Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил) Филол. фанлари номзод дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 144.

<sup>65</sup> Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 36.

<sup>66</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 192.

gidronimlarni to'plash va ularni lisoniy jihatdan tadqiq etishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan<sup>67</sup>.

Surxondaryo gidronimlari yuzasidan tarix, geografiya, tilshunoslik fanlari yo'nalishida bajarilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hudud gidronimlarining barchasi to'planmagan, ayrimlarining bunyod etilish tarixi, geografik jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, lisoniy jihatlari: nomlanish tamoyili, etimologiyasi, lug'aviy-ma'noviy, yasalish, morfemik, morfologik, nomlardagi fonetik-fonologik o'zgarishlar o'rganilmagan. Mazkur holat tarixchi, geograf, tilshunos olimlar oldiga hudud gidronimlarini to'plash bo'yicha qo'shma ekspeditsiyalar o'tkazish, ularning tarixini yozish, gidronimik tavsifini yaratish va izohli lug'atlar tuzish kabi dolzarb vazifalarni qo'yadi. Mazkur tadqiqotda Surxondaryo gidronimlarini to'plash, tavsiflash va lingvistik xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olindi.

<sup>67</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 4.